

Ingliz va o'zbek tillarini qiyoslash orqali o'rgatish texnikalarini modernizatsiya qilish

Mexriniso Obid qizi Rizaqulova
NIU

Annotatsiya: Xorijiy tillarni o'qitish usullarini takomillashtirish dunyo ta'lim tizimining bugungi kundagi eng aktual masalalaridan biridir. Bugunimizning har bir sohasi: kasbiy, madaniy-ma'rifiy va akademik yo'nalishlarda chet tillarini o'rganishning ahamiyati oshib borayotganligi sababli o'qitish texnikalarini izchillik bilan takomillashtirish muhimdir. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitish metodologiyasini modernizatsiya qilish muammolari, xususan O'zbekiston ta'lim tizimi talqinida tahlil qilinadi hamda xorij tajribasi bilan taqqoslanadi.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, metodologiya, autentik muhit, xalqaro tajriba, innovatsion texnologiya

Modernizing teaching techniques by comparing English and Uzbek languages

Mekhriniso Obid kizi Rizakulova
NIU

Abstract: Improving foreign language teaching methods is one of the most urgent issues of the world education system today. Due to the increasing importance of foreign language learning in every sphere of our time: professional, cultural-educational and academic, it is important to consistently improve teaching techniques. This article analyzes the problems of modernization of foreign language teaching methodology, in particular, from the perspective of the Uzbek education system, and compares them with foreign experience.

Keywords: modernization, methodology, authentic environment, international experience, innovative technology

Shiddat bilan rivojlanayotgan bu davrda xorijiy tillarda muloqot qila olish ko'nikmasi har bir inson uchun muhim omilga aylanib ulgurdi. Chet tilini mukammal o'qitish nafaqat malakali kadrlar tayyorlash, balki mamlakatlararo madaniyat almashinuvining boshlang'ich omili hamdir. Aynan shu sababli rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston ham ta'lim sohasini xalqaro standartlarga

moslashtirish maqsadida xorijiy tillar ta'limini zamonaviylashtirishga alohida urg'u bermoqda.

Holbuki, modernizatsiya anchagina murakkab jarayon hisoblanib, u texnologik, pedagogik va ilmiy-amaliy o'zgarishlarni talab etadi. Maqolada modernizatsiya jarayonini O'zbekiston timsolida tahlil qilinadi, uning tahsinga sazovor va muammoli vaziyatlari muhokama qilinadi.

An'anaviy o'qitish usullari- misol tariqasida grammatik-tarjima usuli (Grammar-translation Method), audio-lingvistik (Audio-lingual Method) usulni oladigan bo'lsak, bu metodlar ko'p yillar mobaynida jahon miqyosida ilg'orlik qilib kelgan. Ammo bu kabi uslublarda asosiy diqqat-e'tibor grammatik nazariyaga qaratilgan bo'lib, unda o'rganuvchilar uchun amaliy tajriba va ko'nikmaga sezilarli ahamiyat qaratilmaydi.

Zamonaviy o'qitish usullari, jumladan kommunikativ yondashuv

(CLT-communicative language teaching), vazifaga asoslangan ta'lim

(TBL - Task-based learning), mazmun asosida o'qitish (CLIL - Content and Language Integrated Learning) esa haqiqiy hayotdagi fikr almashish, mustaqil tafakkur yuritish va o'quvchi faolligiga asoslangandir.

H.Duglas Braun(2007) aytib o'tganidek, samarali o'qitish uchun aniqlik va ravonlikning o'rtasida muvozanat bo'lishi, shuningdek, o'rganuvchilarning madaniy va kognitiv farqlari inobatga olinishi zarur.¹

Bundan ko'rinib turibdiki, modernizatsiya faqatgina uslubiy yangilanishni emas, balki ustoz rolini "informatsiya beruvchi" dan "ta'lim jarayoniga yo'naltiruvchi" ga o'zgartirishni ham bildiradi.

Mamlakatimiz istiqboliga erishgandan so'ng ta'lim tizimida bir qator o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirilib, bu yangikliklarning amaliyoti avvalo xorijiy tillarning rivojlanishi o'laroq sezildi. Respublika miqyosida chet tillarini o'qitishni modernizatsiya qilish bo'yicha "2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" hamda "2019-2030-yillarga mo'ljallangan oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" da yetarlicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Biroq, hali ham ushbu masalada kamchilik va ayblarimiz mavjudligi hech kimga sir emas, albatta.

O'tkazilgan so'rovlar va izlanishlar shuni ko'rsatadiki, yurtimizdagi bilim dargohlaridagi barcha pedagoglar ham yetarlicha malaka va ilmga ega emas. O'quvchilar bilan suhbatda shuni yaqqol tushunasizki, ular xorijiy tillarni o'qituvchi ustozlar eng birinchi navbatda o'zlari Xalqaro va Milliy til sertifikatlarini qo'lga kiritgan, pedagogic va psixologik ko'nikmalarga ega bo'lishlarini xohlashadi. Ming afsuski, ta'lim muassasalarida dars berayotgan jamiki pedagoglar ham bu talabga javob berishmaydi.

Bu bilan birga hamma o'quv yurtlarida ham zamonaviy, bugungi davr talabiga javob bera oladigan texnologiyalar mavjud emas. Multimediya materiallari markaziy,

shahar hududlarida bor bo'lgani bilan, olis qishloq hududlarida o'quvchilar nafaqat texnik vositalar, balki yetarli o'quv materiallari bilan ham ta'minlanmagan.

Aksariyat holatlarda o'quvchining yozma yoki grammatik bilimi inobatga olinadi-yu, lekin uning ko'nikmalari, og'zaki nutqi va fikrlash doirasi hech qanday ahamiyat qaratilmaydi.

Chet tilini puxta o'rganishning eng samarali yo'llaridan biri bu albatta autentik muhitning yaratilganligidir. Bunday muhitda til o'rganuvchi o'rganayotgan tilinigina emas, balki o'sha millatning madaniyati, tarixi, urf-odatlar bilan ham tanishadi. Lekin biz o'quvchilarimizga bunday muhitni yaratib berishda bir qator muammoli vaziyatlarga duch kelishimiz shubhasizdir.

Davrimizning rivojlangan, dunyo bilim ko'nikmalarini tan olgan mamlakatlarga nazar soladigan bo'lsak, ko'z o'ngimizga eng ilg'orlar safida Xitoy ta'lim tizimi keladi. Chunki Xitoyda til o'rganish, real hayotda qo'llash va kuchli metodika jarayonlari birgalikda, chambarchas holda amalga oshiriladi. Albatta, buning natijasida til o'rganuvchi o'rganayotgan har qanday ilmini amaliyotda ham bajaradi, fikrlash doirasi kengayadi.

Buyuk Britaniyada esa ta'lim dargohi hisoblangan bog'cha, maktab, kollej va universitetlarda o'qitishni innovatsion metodlar, onlayn platformalar va aralash ta'limsiz tasavvur etish qiyin. Finlandiyaga to'xtaladigan bo'lsak, u yerda o'quvchi markaz hisoblanib, ta'lim jarayoni loyiha asosidagi topshiriqlar va raqamli savodxonlikni erta bosqichdan rivojlantirishga qaratilgan. Janubiy Koreyani oladigan bo'lsak, bu yerdagi pedagogikaga asosiy urg'u berilib, davlat ustozlarni qayta tayyorlash, ularning metodologiyasini kuchaytirishga katta sarmoya ajratadi. Shu kabi davlatlarning barchasida o'qituvchilar doimiy kasbiy rivojlanish dasturlarini orqali uzluksiz malaka oshirib borishadi. Bu esa yangi texnologik va pedagogik tendensiyalarni o'zlashtirish imkonini yaratib beradi ular uchun.

Yuqoridagi tajribalardan ma'lumki, davlatimiz miqyosida xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirishimiz uchun quyidagi bir qator takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

1. Pedagoglarda kommunikativ metodika, raqamli texnologiyalar va o'quvchi markazda bo'luvchi yondashuvlar bo'yicha qayta tayyorlovni kuchaytirish.

2. O'quv darsliklari va materiallarni qaytadan yaratish, ya'ni ularni real hayotdagi muloqotga, madaniyatlararo muloqotga va kreativ g'oyalar o'ylab topishga qaratilgan o'quv qo'llanmalar.

3. Og'zaki nutq va kommunikativ kompetensiyani baholovchi mezonlarni ham qo'shib, baholash mezonini yangidan ishlab chiqish.

4. Xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda pedagog tayyorlash va tajriba almashinuv dasturlarini amaliyotga kiritish.

5. Raqamli ta'limni rivojlantirish: aralash va masofaviy modellari uchun infratuzilmani kengaytirish, ayniqsa chekka qishloq hududlarida.

Xulosa qilib shuni aytolamizki, chet tillarini o'qitish metodologiyasini modernizatsiya qilish - bu faqatgina zarurat emas, balki bugungi kun talabihamdir. Va albatta eng muhimi, ta'lim jarayoniga xorij tajribalarini to'g'ridan to'g'ri emas, balki O'zbekiston muhitiga moslashtirishdir.

O'qituvchilar malakasini kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish va zamonaviy metodikani qo'llash orqali mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini Xalqaro darajaga olib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aziza, N., & Gapparova, M. T. (2025). XORIJIY TILLARNI O 'QITISH METODOLOGIYASINI MODERNIZATSIYA QILISH MUAMMOLARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA. TA'LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O 'RNI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 56(2), 218-221.

2. Abdyhalykova, A. M. (2016). Innovative methods of foreign languages teaching. Indian Journal of Science and Technology, 9(22), 1-7.

3. Соловей, А. Ю. CURRENT ISSUES OF MODERNIZATION OF REQUIREMENTS FOR A MODERN FOREIGN LANGUAGE TEACHER.